


Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-sentyabrda 2239 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 138,5 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (17,2 %), sanoat tarmog'ida (17,0 %), savdo sohasida (16,9 %), qurilishda tarmog'ida (15,0 %), yashash va ovqatlanishda (4,5 %), tashish va saqlashda (2,7 %) tashkil etilgan.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar-sentyabda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentyabr holatiga.



2016 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,6 birlikda bo'lib, 2017 yilda 12,7 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 13,4 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 2 birlik yuqori.

**2018 yil yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi (% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Qashqadaryo viloyati	22,2	82,9	70,6
Qarshi sh	60,0	80,7	58,2
Shaxrisabz sh	56,3	100,0	23,9
tumanlar			
G'uzor	2,4	90,0	63,9
Dehqonobod	11,3	97,0	89,3
Qamashi	66,4	97,7	83,4
Qarshi	25,7	88,2	95,7
Koson	31,1	49,7	96,4
Kitob	100,0	93,2	96,2
Mirishkor	31,3	64,5	93,3
Muborak	1,6	73,6	60,3
Nishon	5,6	92,0	92,6
Kasbi	32,8	94,5	91,6
Chiroqchi	87,4	95,1	60,4
Shaxrisabz	77,0	93,0	95,6
Yakkabog'	81,9	95,6	91,0

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0 %), Chiroqchi (87,4 %) va Yakkabog' (81,9 %), tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Qarshi sh (100,0), Qamashi (97,7 %), Dehqonobod 97,0 %), va Yakkabog' (95,6%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Koson (96,4 %), Kitob (96,2 %), Qarshi (95,7) Shaxrisab(z 95,6 %), va Mirishkor (93,3 %), tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–sentyabrda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2145,2 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 22,2 %) yoki 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 106,8 %ni tashkil qildi;

– 1240,2 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 11,5 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 130,2 %ni tashkil qildi;

– 1984,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 82,8 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 105,8 % ni tashkil qildi;

– 3542,3 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 70,6 %), 2017 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan o`shish sur`ati 104,2 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 84,1 % 5249,6 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 102,0 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 87,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 41,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 52,8 mln. AQSh dollariga yoki 153,9 % ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,2 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 84,5 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,9 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur`ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi sh. (732,5 mlrd.so'm), Kitob (185,7 mlrd.so'm) va Shahrisabz (148,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod (31,9 mlrd.so'm) va Mirishkor tumanlarda (44,7 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi sh. (1073,8 mlrd.so'm), Koson (545,9 mlrd.so'm), Chiroqchi (477,2 mlrd.so'm), va Qamashi (386,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (1273,1 mlrd.so'm), Yakkabog' (208,4 mlrd.so'm) va Chiroqchi (204,9 mlrd.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 58 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 44,4 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 44,4 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 60,0 % va 20,0 %, xizmatlar sohasida – 45,0 % va 45,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 30,0 % va 50,0 %, sanoatda – 44,4 % va 44,4 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 11,1 %, qurilishda – 11,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 20,0 %, xizmatlarda – 10,0 % va savdoda – 20,0 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 100,0 % sanoat korxonalarini, 90,0 % – savdo, 80,0 % – xizmatlar, 80,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 88,9 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.